



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 155-160 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DEMOGRAFIK OMILLAR VA SUG'URTAGA BO'LGAN TALAB TAHLILI



Bekberganova Mohira Ravshonbekovna

O'zbekiston Milliy universiteti
Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish
kafedrasи tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola demografik omillar va sug'urta talabining o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor aholi tarkibidagi o'zgarishlar, masalan, yosh guruhlari, daromad darajasi, urbanizatsiya, va ta'lim darajasi kabi omillarning sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabni qanday shakllantirishiga qaratilgan. Aholining iqtisodiy va ijtimoiy holatlari sug'urta mahsulotlari sotib olish qarorlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sug'urta mukofoti, aholi soni, aholi daromadi, korrelyatsion tahlil, regression tahlil

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется взаимосвязь между демографическими факторами и спросом на страхование. Основное внимание уделяется тому, как такие факторы, как изменения в составе населения, такие как возрастные группы, уровень доходов, урбанизация и уровень образования, формируют спрос на страховые продукты. Экономические и социальные условия населения существенно влияют на решения о приобретении страховых продуктов.

Ключевые слова: страховые премии, население, доходы населения, корреляционный анализ, регрессионный анализ

ABSTRACT. This article analyzes the relationship between demographic factors and insurance demand. The focus is on how factors such as changes in population composition, such as age groups, income levels, urbanization, and education levels, shape the demand for insurance products. The economic and social conditions of the population greatly influence the decisions to purchase insurance products.

Keywords: insurance premium, population, population income, correlation analysis, regression analysis

KIRISH

Sug'urta bozoridagi talab ko'plab omillar bilan shakllanadi, ammo demografik holat eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholi soni, yosh tarkibi, ta'lim darajasi, iqtisodiy daraja va urbanizatsiya kabi demografik o'zgarishlar sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabni sezilarli darajada ta'sir qiladi. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi bilan birga, hayot sug'urtasi, sog'liq sug'urtasi va boshqa moliyaviy himoya mahsulotlariga bo'lgan talab o'sadi.

Aholining qarishi kabi demografik o'zgarishlar nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham sug'urta talabiga kuchli ta'sir ko'rsatadi (Beck & Webb, 2003). Ayniqsa, aholining qarishi uzoq muddatli parvarish va sog'liq sug'urtasi bo'yicha talabni oshiradi (Li & Liu, 2023). Bundan tashqari, **urbanizatsiya jarayoni** aholi sug'urta bozoriga kirib kelishini jadallashtiradi, chunki shahar hududlarida sug'urta mahsulotlariga ehtiyoj katta (Chen & Cummins, 2023).

Maqolada demografik o'zgarishlar va sug'urta talabining dinamikasini tahlil qilish orqali sug'urta kompaniyalari va bozor ishtirokchilari uchun tavsiyalar beriladi. Sug'urta talabi va demografik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish kompaniyalarga bozor strategiyalarini moslashuvchan qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta bozorlaridagi demografik omillar bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar odatda sug'urta talabiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlar bilan bog'lab tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar turli mamlakatlar va bozorlar bo'yicha keng ko'lami statistik ma'lumotlar va iqtisodiy modellar asosida amalga oshirilgan. Xususan, Browning, M., & Lusardi, A. (1996). "Household saving: Micro theories and micro facts" maqola aholi daromadlari va uy xo'jaliklari tejamkorligi haqida. Ularning daromad, yosh, va ma'lumot darajasiga bog'liq ravishda sug'urta sotib olish ehtimoli qanday o'zgarishini o'rganadi. Sug'urta ehtiyojlari va talablari uy xo'jaliklarining iqtisodiy holati va ularning demografik ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Finkelstein, A., & Poterba, J. (2004). "Adverse selection in insurance markets: Policyholder evidence from the UK annuity market". Ushbu tadqiqot sug'urta bozorlaridagi teskari tanlov (adverse selection) holatlarini va demografik omillar, masalan, yosh va jinsi, sug'urta mahsulotlarining talabiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqotlar sug'urta narxlari va talabi orasidagi muvofiqlikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Beck, T., & Webb, I. (2003). "Economic, demographic, and institutional determinants of life insurance consumption across countries". Ushbu maqola turli mamlakatlarda hayotni sug'urtalash talabi va iste'molini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor iqtisodiy omillar bilan bir qatorda demografik ko'rsatkichlarga ham qaratilgan: yosh, ta'lim darajasi, daromad darajasi va urbanizatsiya darajasi kabi omillar sug'urta iste'moliga ta'sir qiladi.

Hammond, J.D., Houston, D.B., & Melander, E.R. (1967). "Determinants of household life insurance premium expenditures: An empirical investigation". Bu tadqiqot sug'urta xarajatlarini uy xo'jaliklari darajasida tahlil qiladi. Ular yosh, daromad, oilaviy holat kabi demografik omillarning uy xo'jaliklarining hayotni sug'urtalashga sarflaydigan mablag'lariga qanday ta'sir qilishini o'rganadilar.

Outreville, J.F. (1996). "Life insurance markets in developing countries". Ushbu maqola rivojlanayotgan mamlakatlardagi hayot sug'urtasi bozorlarini tahlil qiladi va demografik

omillarning, xususan aholining yosh tarkibi va iqtisodiy farovonligi, sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi.

Zietz, E.N. (2003). "An examination of the demand for life insurance". Zietzning tadqiqoti hayot sug'urtasi talabi bo'yicha keng qamrovli sharh bo'lib, unda sug'urta sotib olish qarorlariga ta'sir etuvchi demografik omillar, jumladan, yosh, jins, ma'lumot darajasi va oilaviy holat muhim rol o'ynashi aniqlanadi.

Browne, M. J., & Kim, K. (1993). "An international analysis of life insurance demand". Ushbu maqolada mualliflar turli mamlakatlarda hayot sug'urtasi talabiga ta'sir etuvchi demografik va iqtisodiy omillarni tahlil qilishgan. Ular yosh, daromad, va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'lgan tendensiyalarni aniqlashga qaratilgan.

Li, M., & Liu, Y. (2023). "The Impact of Population Aging on Life Insurance Demand: Evidence from OECD Countries". Ushbu tadqiqotda aholi qarishi hayot sug'urtasiga bo'lgan talabga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Tadqiqot OECD mamlakatlari ma'lumotlariga asoslanib, aholining keksayishi hayot sug'urtasi mahsulotlari talabini oshirishi mumkinligini aniqlaydi, ayniqsa uzoq muddatli sog'liqni saqlash va parvarish sug'urtalari uchun.

Chen, Z., & Cummins, J.D. (2023). "Urbanization and Insurance Demand in Developing Markets". Ushbu maqola urbanizatsiya jarayoni sug'urta talabiga qanday ta'sir qilishi bo'yicha ma'lumotlar beradi. Shahar joylarda sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talab qishloq joylarga qaraganda yuqori ekanligi o'rganilgan. Aholining migratsiyasi va demografik o'zgarishlar sug'urta sohasida yangi imkoniyatlar va talablarga olib keladi.

Schwartz, M., & Petrova, K. (2023). "The Role of Income Inequality in Life Insurance Demand". Bu tadqiqot daromad notejisligi sug'urta talabiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi. Asosiy natijalardan biri shuki, daromad notejisligi yuqori bo'lgan hududlarda hayot sug'urtasiga bo'lgan talab pasayishi mumkin, chunki sug'urta mahsulotlarini sotib olishga qodir bo'lganlar soni kamayadi.

Outreville, J. F. (2023). "Life Insurance and Financial Inclusion in Emerging Economies". Ushbu maqola rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda hayot sug'urtasining talabiga e'tibor qaratadi. Demografik va iqtisodiy omillar, masalan, aholi o'sishi, ta'lim darajasi va moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olinmagan guruhlarning mavjudligi sug'urta talabini cheklashi yoki oshirishi mumkinligini tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni baholashda demografik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar asosida statostik tahliliy, ekonometrik tahlil va tizimli yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat sug'urta mukofoti hajmini tahlil qilishning ahamiyati turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bog'liq. Sug'urta mukofoti hajmini tahlil qilish sug'urta sektori iqtisodiyotni qanchalik qo'llab-quvvatlayotganini, sug'urta xizmatlariga

aholining talabini, mamlakatdagi sug`urta qamrovi darajasi, yangi mahsulot va xizmatlarga ehtiyojni mavjudligini baholash, tabiiy ofatlar, inqirozlar kabi xavflarni boshqarish hamda aholi va korxonalarini moliyaviy himoya qilish strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Sug`urta kompaniyalarining asosiy daromad manbasi bu sug`urta mukofotlari hisoblanadi. Sug`urtaga bo`lgan talab bu sug`urta mukofotlarining hajmi orqali ifodalash mumkin. YalM mahsulotdagi sug`urta mukofotlarining ulushi 0,81 foizni tashkil qilib, 2023-yilda yig`ilgan mukofotlar hajmi 8 059mlrd so`mni tashkil etdi.

2010-2023 yillarda yig`ilgan sug`urta mukofotlari hajmi(mln.so`m)



Demografik omillar va sug`urta kompaniyalarining sug`urta tushumlari orasida bog`liqlik tahlil qilingan olimlarning ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda mazkur maqolda sug`urta tushumlari va demografik omillar korrelyatsion-regression tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda O`zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy saytidagi mavjud ma`lumotlardan foydalanildi. 2010-2023 yillar ya`ni 14 yillik statistika asosida tahlil amalga oshirilgan. Bunda sug`urta kompaniyalari tomonidan yig`ilgan umumiyligi sug`urta mukofoti hajmi hamda bir nechta demografik omillar tanlab olingan. Demografik omillar sifatida doimiy aholi soni, aholi jon boshiga daromad ko`rsatkichi va 65 yoshdan yuqori bo`lgan aholi soni ko`rsatkichlaridan foydalanilgan.

Tanlab olingan omillar o`rtasida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko`ra, barcha omillar o`rtasida kuchli statistik bog`lanish mavjud. Sug`urta mukofoti va aholi soni o`rtasida bog`lanish 0,86, sug`urta mukofoti va aholi jon boshiga daromad o`rtasida yuqori bog`liqlik mavjud bo`lib, 0,94ga teng. Sug`urta mukofoti va 65 yoshdan yuqori aholi soni o`rtasida ham bog`lanish 0,78ga teng bo`lib, kuchli bog`lanishni ko`rish mumkin.

Sug`urta mukofoti va demografik omillar o`rtasidagi korrelyatsion matritsa

	Sug`urta mukofoti	Aholi soni	Aholi jon boshida daromad	65 yoshdan yuqori bo`lgan aholi soni
Sug`urta mukofoti	1			
Aholi soni	0.86	1		

Aholi jon boshida daromad	0.94	0.97	1	
65 yoshdan yuqori bo`lgan aholi soni	0.78	0.64	0.77	1

Tanlab olingan omillar va sug`urta mukofoti hajmi o`rtasidagi bog`liqlikni regression tahlil qilish orqali yana kengroq ma`lumotga ega bo`lamiz. Eng kichik kvadratlar metodi yordamida sug`urta mukofoti va aholi soni, aholi jon boshiga daromad, 65 yoshda yuqori aholi soni ko`rsatkichlari yordamida bir nechta modellar tuzildi.

OLS yordamida baholangan regression modellar

	Model 1	Model 2	Model 3	Model 4	Model 5
VARIABLES	ins	ln_ins	ln_ins	ln_ins	ln_ins
incpcap	1,071*** (161.0)	3.90e-05 (4.15e-05)	0.000215*** (1.17e-05)	7.18e-05** (2.66e-05)	
olders	-1.909 (1.089)	2.89e-07 (2.81e-07)			
pop	-1,448*** (317.8)	0.000400*** (8.19e-05)		0.000345*** (6.25e-05)	0.000509*** (1.83e-05)
Constant	4.172e+07*** (9.890e+06)	0.225 (2.548)	11.90*** (0.120)	2.113 (1.775)	-2.497*** (0.586)
Observations	14	14	14	14	14
R-squared	0.967	0.992	0.965	0.991	0.985

Standard errors in parentheses

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Yuqoridagi modelda ins- sug`urta mukofotlari hajmi, incpcap- aholi jon boshiga daromad, olders-65 yoshda yuqori aholi soni, pop- aholi sonini ifodalaydi.

Model 1 bu sug`urta mukofoti hajmi va aholi soni, aholi daromadi va 65yoshda yuqori aholi soni omili o`rtasidagi regression model. Ammo bu modelda 65yoshdan yuqori aholi soni omili(olders) 10%, 5% hamda 1% ahamiyalilik darajasida statistic ahamiyatga ega emas.

Sug`urta mukofotlari hajmini natural lografmik shakli Model 2da kiritilgan. Bunda omillar o`rtasida bog`lanish birlikda emas, foiz ifodalanadi. Ammo bu modelda ham aholi jon boshida daromad(inccap), 65yoshdan yuqori aholi soni(olders) ko`rsatkichlari statistik ahamiyatga ega emas,

Model 3, Model 4 va Model 5da aholi soni va aholi jon boshiga daromad ko`rsatkichlari alohida juft regressiya va ko`p regression model holatida ham ikkala omil statistik ma`noga ega bo`lgan.

Aholi soni va aholi jon boshiga daromad omillari sug`urta mukofotiga ta`siri statistik ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta mukofoti hajmiga aholi soni va aholi jon boshiga daromadning ta'sirini o'rGANISH sug'urta sektorining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tahlil qilish uchun muhimdir. Ushbu omillar sug'urta bozorining o'sish imkoniyatlarini aniqlashda va kompaniyalar strategiyasini belgilashda asosiy mezonlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Christophersen C. et al. Insurance and the macroeconomic environment //EIOPA-Financial Stability Report. – 2014. – C. 44-55
2. Burić M. N. et al. Impact of economic factors on life insurance development in Western Balkan Countries //Zbornik radova Ekonomskog fakulteta u Rijeci: časopis za ekonomsku teoriju i praksu. – 2017. – T. 35. – №. 2. – C. 331-352
3. Chang T. et al. Does globalization affect the insurance markets? Bootstrap panel Granger causality test //Economic Modelling. – 2013. – T. 33. – C. 254-260
4. Pradhan R. P. et al. Insurance market density and economic growth in Eurozone countries: the granger causality approach //Financial Innovation. – 2017. – T. 3. – №. 1. – C. 1-24
5. Lee C. C., Chiu Y. B. Globalization and insurance activity: Evidence on the industrial and emerging countries //The North American Journal of Economics and Finance. – 2016. – T. 36. – C. 328-349
6. Dash S. et al. Impact of banking sector development on insurance market-growth nexus: the study of Eurozone countries //Empirica. – 2020. – T. 47. – C. 205-243
7. Dalkilic N., Kirkbesoglu E. The role of financial literacy on the development of insurance awareness //International Journal of Economics and Finance. – 2015. – T. 7. – №. 8. – C. 272-280
8. Volosovych S. et al. Transformation of insurance technologies in the context of a pandemic //Insurance Markets and Companies. – 2021. – T. 12. – №. 1. – C. 1-13
9. Feyen E., Lester R. R., Rocha R. R. What drives the development of the insurance sector? An empirical analysis based on a panel of developed and developing countries //An Empirical Analysis Based on a Panel of Developed and Developing Countries (February 1, 2011). World Bank Policy Research Working Paper. – 2011.
10. Гулямов С.С. Проблемы моделирования развития территориально-промышленных комплексов. Дисс. на соиск. учен. степ. докт. экон. наук. – М. 1974
11. Абдуллаев Ё.А. Статистика назарияси. Дарслик – Т.: Ўқитувчи, 2002
12. Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish: iqt.fan.dok. diss. avtoref. T.: TDIU, 2001. – 36 b

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

